

O'ZBEK SHEVALARIDA O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAM

N.O. Avazova

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

S. Shakarova

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605964>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek shevalarida mavjud bo'lgan o'z va o'zlashgan leksik qatlamlar tahlil qilinadi. Shevalardagi so'z boyligi, ularning tarixiy ildizlari va bugungi kundagi shakllari misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sheva, adabiy til, o'z leksiklar, o'zlashma so'zlar, leksik qatlam, tilshunoslik, tarixiy leksika.

Til jamiyat hayotining ajralmas bo'lagi bo'lib, undagi shevalar xalqning og'zaki nutqiy tajribasini, tarixiy taraqqiyotini va madaniy aloqalarini aks ettiradi. Shevalar tilning ildizli qatlamlarini, qadimgi so'z boyligini va zamonlar davomida boshqa tillar bilan aloqada yuzaga kelgan o'zlashmalarni o'zida jamlaydi. O'zbek tili o'zining tarixiy taraqqiyotida lug'at tarkibini o'z va o'zlashma so'zlar hisobiga boyitib kelgan va kelmoqda. O'z qatlam ildizlari asosida yangi so'zlar yasaldi, qo'shimcha vazifalar kiritildi, mavjud so'z ma'nolari kengaytirildi, ehtiyojga ko'ra adabiy tilga shevalardan turli so'zlar qabul qilindi.

O'zbek tilining shevalarida uchraydigan o'z qatlam so'zlari — bu xalq tili tarixiy taraqqiyotining tub ildizlaridan oziqlangan, asosan turkiy asosli leksik birliklardir. Ular tilning ichki qonuniyatlari asosida vujudga kelgan bo'lib, boshqa tillardan o'zlashmagan, milliy, tarixiy va mintaqaviy jihatdan shakllangan so'zlardir. Bu qatlam so'zlari qadimgi turkiy tillardan meros bo'lib, asosan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asarida, O'rxun-Enasoy va Qoraxoniylar yodgorligi manbalardan tarkib topgan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning asarida uchraydigan ba'zi so'zlarimizni bugungi kunda ham iste'molda qo'llaymiz. Īp–ip (bog'lab qo'yish uchun ishlatiladigan arqon), juq–yuq (idish yuqi), jil–yil (vaqt o'lchovi), jüräk–yurak (tana a'zosi), jarim-yarim (o'lchov), jašin-yashin (chaqmoq), julduz-yulduz (osmon jismi). Bundan tashqari o'z qatlam shevalarda ham saqlanib qoladi. Masalan, Buxoro shevasida uchraydigan buralmoq (aylanmoq), g'ur (suv), shovur (ariq) shular jumlasidandir. O'z qatlamdagi so'zlar xalqning til boyligini belgilovchi asosiy vositadir. Ular orqali mintaqaviy tafovutlar o'rganiladi, qadimiy turkiy madaniyat va tafakkur namoyon bo'ladi, adabiy tilni boyitishda resurs manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun o'z qatlamdagi so'zlarni ilmiy jihatdan o'rganish, tasniflash va saqlab qolish dolzarb tilshunoslik masalalaridan biridir. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos bo'lib hisoblansada, biroq dunyodagi hech bir til o'z ichki manbalarigagina tayanib qolmaydi. Shunga ko'ra ham o'zbek tili uchun faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigagina yetarli emas. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishi va takomillashishida tashqi manba ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli sharoitlarida yuzaga kelgan so'zlar yoki mavjud bo'lgan so'zlar o'zbek tili lug'atining boyishida ham o'z izini qoldiryapti.

O'zbek tili shevalarida o'z qatlam bilan bir qatorda o'zlashgan qatlam ham muhim o'rin tutadi. Bu qatlam boshqa tillar ta'sirida o'zbek tiliga kirib kelgan leksik birliklardan iborat bo'lib, ular asosan tarixiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalar natijasida yuzaga kelgan.

O'zlashgan qatlam so'zlari ham tashqi va ichki omillar sababi shaklini o'zgartirgan va xalq tilining og'zaki shakli bo'lgan shevalarda saqlanib qolgan. O'zlashma qatlam o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo'li davomida bir necha manbadan ozuqa olgan. Masalan, arab, fors-tojik, rus, yaqin yillarda kirib kelayotgan inglizcha so'zlar manbaning asosiylari hisoblanadi. Misol qilib arabcha va forsha so'zlarni oladigan bo'lsak, bu so'zlar islom dini, ilm-fan, adabiyot, ma'rifat va boshqaruv tizimi orqali o'zlashgan. Ko'p hollarda bu so'zlar adabiy tilga ham chuqur singib ketgan.

Sheva misolida esa daftar (o'quv quroli), maqbara (qabriston), sabr (chidam). Ruscha o'zlashmalar XX asrda, ayniqsa sovet davrida bu qatlam keskin ravishda boyidi. Rus tilidan kirgan so'zlar asosan texnika, fan, siyosat, maishiy hayot va ijtimoiy sohalar bilan bog'liq. Masalan, pechka–pichka (isitish moslamasi), uchaska– uçaska (mahalla vakilining hududi). Yaqin yillarda ingliz tilidan kirgan so'zlar zamonaviy texnologiya, internet, madaniyat va yoshlar tili orqali inglizcha so'zlar shevalarga ham kirib bormoqda. Asosan katta shaharlarda, yoshlar orasida tarqalgan bo'lsa-da, ayrim hollarda mintaqaviy shevalarda ham qayd etilgan. Masalan, kompyuter, printer, zoom qilmoq, like bosmoq, online bo'lmoq, screenshot qilish. Bu so'zlar hali shevalarda keng ildiz otmagan, ammo tez rivojlanayotgan qatlam hisoblanadi. O'zbek tilidagi o'zlashgan so'zlar umumiy lug'at boyligining 60 foizgacha qismini tashkil qilishi mumkin. Biroq bu foiz adabiy til va shevalarda faol ishlatiladigan so'zlarda bir oz farq qiladi. Adabiy tilda o'zlashgan so'zlar ko'proq (60 foizgacha) bo'lishi mumkin. Shevalarda esa o'z qatlam kuchli bo'lib (50–55foiz), o'zlashgan so'zlar 40–45 foiz atrofida bo'ladi.

O'zlashgan qatlam tilning ochiqligi va rivojlanish salohiyatini ko'rsatadi, madaniy ta'sirlar izini saqlaydi, xalq tafakkuridagi o'zgarishlar va zamonaviylik belgilarini aks ettiradi, adabiy tilga boyluk qo'shuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Biroq haddan ortiq o'zlashuv lingvistik asliyatga tahdid solishi mumkin. Shu bois, o'zlashma qatlam so'zlarining o'rganilishi ularni to'g'ri baholash, tasniflash va adabiy tilga me'yorli joriy etish uchun muhimdir. Shu bois, o'zbek shevalarini ilmiy jihatdan o'rganish, ularni yozma til va adabiy til bilan solishtirish, xususan o'zlashgan qatlamni manba va shakl jihatidan chuqur tahlil qilish bugungi tilshunoslik fanining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazova, N., & Jalilova, O. (2024). ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 20-24.
2. Avazova, N. (2024). TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR: ANVAR OBIDJON IJODIDA TO'RTLILIK SHAKLIGA YANGICHA POETIK MUNOSABAT IFODASI. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
3. Avazova, N. (2024). THE ROLE OF THE QUATRAINS IN NAVOI PROSE AND SCIENTIFIC WORKS. Modern Science and Research, 3(10), 176-179.
4. SO, N. A. S. L. D. SHEVA LEKSIKASIDA DIALEKTAL SO'Z TURLARI (Buxoro viloyati, G'ijduvon tuman shevasi misolida). THEORETICAL ISSUES OF UZBEK LINGUISTICS, 248.
5. Eshqulova, G., Musurmonova, M., & Axmedova, D. B. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 72-75.
6. Axmedova, D. (2023, May). O'ZBEK TILI KORPUSLARI SEMANTIK KENGAYTMASIDA "BOSH" LEKSEMASINING SEMANTIK IZOHLARIDAN FOYDALANISH XUSUSIDA. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ» Международная научно-практическая конференция (Vol. 2, No. 2).
7. Axmedova, D., & Eshqulova, G. (2022, June). TIL BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGLASHDA SEMEMA MASALASI. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ» Международная научно-практическая конференция (Vol. 1, No. 1).
8. Qizi, Y. B. A., Qizi, Y. H. A., & Axmedova, D. B. (2022). 2-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK

- KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(15), 51-56.
9. Qizi, S. M. A., & Axmedova, D. B. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINING BILIM EGALLASHGA DOIR QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK ASARLARNING O 'RNI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 43-46.
 10. Axmedova, D. (2021). СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СИСТЕМА И МОДЕЛЬ. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
 11. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
 12. Akhmedova, D. B. (2020). SET OF SEMANTIC TAGS FOR UZBEK LANGUAGE UNITS: CONSTANTS AND OPERATOR CLASSIFIER. *Theoretical & Applied Science*, (2), 177-179.
 13. Bahodirovna, D. A. (2020). SEMANTIC TAG CATEGORY IN CORPUS LINGUISTICS: EXPERIENCE AND ANALYSIS. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 152-160.
 14. Bahodirovna, A. D., & Khamidjanovna, A. F. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC ASPECTS OF SAHBO LYRICAL HERITAGE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 235.
 15. Sharipova, M., & Azimova, N. (2025). ERTAKLARNING JANRIY BELGILARI VA MOTIVLAR TIZIMI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1149-1158.
 16. Sharipova, M., & Bakhshulloyeva, S. (2025). THE PLACE OF THE WORK OF ABDULLA ARIPOV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LITERATURE. *Modern Science and Research*, 4(1), 388-395.
 17. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
 18. Baxshilloyevna, S. M. (2024). ARXAİK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
 19. Шарипова, М. Б., & Ньматуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).

20. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
21. Мирханова, Г. (2024). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИ. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(1), 76-80.
22. Мирханова, Г. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172-178.
23. Rustamovna, M. G. (2020). Rus tilshunosligida sinonim sozlar oquv lugatlarining tadrijiy rivojlanishi. *Oriental Art and Culture*, (III), 326-329.
24. Rustamovna, M. G. (2024). Linguistic Form of Terms in Explanatory Dictionaries of the Uzbek Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(6), 589-591.